Shuningdek, davlatimiz tamonidan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasi qabul qilingan bo'lib, raqamli iqtisodiyot, elektron biznesni rivojlantirish maqsadida "...elektron tijorat sohasida malakali kadrlar tayyorlash o'quv jarayonining darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shu jumladan chet eldagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida, shuningdek, yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish"^[2], kabi ustuvor maqsad qo'yilgani elektron biznes faoliyatini rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolayotganligini anglatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

R. H. Ayupov, G. R. Boltaboyeva "Raqamli iqtisodiyot asoslari" nomli darsligida zamonaviy elektron tijorat hamda raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan muammolar bilan bog'liq masalalar, raqamli iqtisodiyotga o'tish mexanizmi, elektron tijorat va elektron biznesning bir qancha samarali biznes modellari haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar berilgan^[3].

Q. J. Mirzayev, S. B. Boboqulov, B. Q. Janzakov "Raqamli iqtisodiyot" nomli o'quv qo'llanmasida raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanishi bilan bog'liq texnologiyalar haqida umumiy tushuncha berilgan, boshqaruvning yangi oby'ektlari platformalar va biznes ekotizimlari, biznesni boshqarishning yangi tamoyillari tavsiflangan, elektron biznes va elektron tijoratni boshqarishning nazariy tamoyillari raqamli evolyutsiya ta'siri ostida biznes modellarini o'zgartirish nuqtayi nazaridan keltirilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar keltirilgan^[4].

N. E. Yadova "Jahon elektron tijorat bozorining hozirgi holati va uning rivojlanish istiqbollari" nomli ilmiy maqolasida tadqiqotchi tomonidan olib borilgan tadqiqot ishining asosiy maqsadi – Rossiya elektron tijoratining kelajakdagi tendensiyalarini bashorat qilish uchun global Internet-tijoratning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari o'rganish va baholash bo'yicha tadqiqotlar olib brogan^[5].

S. N. Xamrayeva "O'zbekistonda elektron savdo va elektron tijoratni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari" nomli ilmiy maqolasida O'zbekistonda elektron tijorat va elektron savdoni rivojlantirish muammolari va xususiyatlari o'rganilgan. Rivojlangan davlatlar va O'zbekistonda elektron tijorat va elektron savdoning rivojlanish ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan^[6].

Sunnatullo Do'stov va boshqalar "Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari" nomli ilmiy maqolasida raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari, jahon mamlakatlari aholisi iqtisodiyot tarmoqlarining o'zgarishi, globallashuv sharoitida mamlakatlar raqobatbardoshligini aniqlashda iqtisodiyotning raqamlashtirilganligi darajasi haqida batafsil bayon qilingan^[7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning tadqiqot jarayonida Raqamli iqtisodiyoti sharoitida elektron biznesni rivojlantirish va uni tashkil etish bo'yicha izlanishlar tahlil etib o'rganilgan. Shuningdek, bir qator usullardan foydalanish asosida o'rganilgan, jumladan, xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o'rganilib, mamlakatimizda elektron biznes faoliyatini rivojlantirish bo'yicha imkoniyatlarni ochib berishda ahamiyat kasb etgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro ekspertlarning olib brogan tahlillari ko'ra, Xitoyning Alibaba chakana savdo guruhi 2022-yilda 700 milliard dollardan ortiq onlayn savdoga ega bo'lgan dunyodagi eng yirik elektron tijorat chakana savdo tarmog'idir. Biroq, Sietlda joylashgan Amazon elektron tijorat giganti 2027-yil uchun taxminiy sotuvlar bo'yicha Alibabadan o'zib ketishi kutilmoqda, yani Amazon onlayn savdodan 1,2 trillion dollardan ko'proq daromad olashi bashorat qilinmoqda^[11]. Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi olib borgan tahliliy o'rganishlarga qaraganda, so'nggi yillarda O'zbekistonda elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biriga aylandi.



Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda elektron tijorat va chakana savdo hajmi barqaror o'sib bormoqda. Xususan, 2022-yilda elektron tijorat savdolari hajmi 2021-yilga nisbatan 1,8 barobar oshib, 10 886,8 mlrd. so'mdan ortiqni tashkil etgan. Bu umumiy chakana savdo hajmining 4 foizdan ortig'iga tengdir ^[12].

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlarga asoslanib mamlakatimizda elektron biznes faoliyatini mavjud imkoniyatlarimiz va rivojlanagan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda yanada rivojlantirishimiz, mavjud elektron biznes faoliyatlarni takomillashtirishimizni taqozo etmoqda.

Elektron biznes faoliyati takomillashtirishimizda uning iqtisodiy mazmun-mohiyatini to'la anglab olgan holda rivojlantirishimiz mumkin bo'ladi. Elektron biznes atamasi 1996-yilda IBMning bosh direktori L. Gerstner tamonidan amaliyotga tatbiq etilib ishlatila boshlagan va bunga quyidagicha ta'rif bergan "Elektron biznes – bu Internetda biznes jarayonlarini olib boorish jarayoni" deya ta'riflab o'tgan. Ushbu elektron biznes jarayonlari Internet tarmoqlaridan IT vositalari orqali tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish, mijozlarga xizmat ko'rsatish va boshqalarni o'z ichiga oladi degan fikrlarni ilgari surgan. Shuningdek, to'lovlarni qayta ishlash, ishlab chiqarishni nazorat qilishni boshqarish va boshqalarga tegishli bo'lishi mumkin degan fikrlarni ilgari surishgan ^[3].

Boshqa bir manbaada elektron biznes atamasi inglizcha "Electronic Business" so'zdan olingan bo'lib Internet biznesi deb nomlanib, bunda axborot tizimlaridan foydalangan holda avtomatlashtirilgan biznes jarayonlarning, tijorat ma'lumotlar almashinuvi va tijorat operatsiyalarining biznes modeli hisoblanadi degan fikrlarni ilgari surishgan ^[3].

Fikrimizcha, elektron biznes IT vositalari orqali iqtisodiy manfaatlarni ko'zlagan holda virtual olamdagi faoliyat hisoblanib, jamiyat va insonlarga sifatli xizmat ko'rsatish, ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilgan jarayondir. Shuningdek, elektron biznesda moddiy va nomoddiy tovarlar, ma'lumotlar, hujjatlar, hisobotlar ayirboshlanishi mumkin bo'lgan jarayondir.

Elektron biznesdan foydalanish odatda ikkita yo'nalishda amalga oshiriladi. Ya'ni yangi biznesni yaratish yoki faoliyatni kengaytirish maqsadida yoki mavjud elektron biznes faoliyatini kengaytirish uchun axborot texnologiyalarini joriy etishdir ^[4].

Hozirgi vaqtda elektron biznesning bir qator yo'nalishlari mavjud bo'lib, keng miqyosda rivoj topib bormoqda. Bular quyidagilar:

- Elektron biznes faoliyati;
- Internet xizmat ko'rsatish;
- Internet tarmog'ida kontent xizmatlari;
- Elektron firmalar faoliyati kabi yo'nalishlardan iboratdir.

Quyida keltirilgan yo'nalishlar orqali elektron biznes hozirgi davrda keng rivoj topib bormoqda. Elektron biznes faoliyatini rivojlanishiga uning bir qator avfzalliklari sabab bo'lmoqda. Xususan, keng miqyosda marketing xizmatlarini joriy etilishi, ishchi, xodimlar bilan yuz beradigan turli xavflarni kamayishi, biznesni keng miqyosda kengayishi, tadbirkorlik kapitalini doiraviy aylanishi tezlashishi, biznes moddiy aktivlarini kamayishi, sotuvchi va xaridorlar o'rtasida masofani yo'qolishi, erkin raqobat muhitini shakllanishi kabi avfzalliklarga egadir.


Shu bilan birgalikda elektron biznesning kamchiliklari ham mavjud. Masalan, tarmoq bo'yicha cheklolarning mavjudligi, elektron biznes faoliyatini shakllantirish uchun sarflanadigan sarf-xarajatlarning kattaligi, kiber hujumlar, dark-netni rivojlanishi, soliqlardan qochish, qonuniy-me'yoriy hujjatlarning talab darajasida emasligi, aholi savodxonligini yetishmasligi kabi kamchiliklar ham mavjud bo'lib elektron biznesni rivoji salbiy ta'sir qilmogda. Fikrimiz tasig'i sifatida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va elektron biznes sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushini tahlil qilishimiz orqali ham ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval: Raqamli iqtisodiyot va elektron biznes sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (YaQQga nisbatan % da) ^[4]

Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	1,9	2,1	2,3	2,0	1,7	1,9	2,5	3,4
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori	1,8	2,0	2,1	1,8	1,5	1,6	1,7	1,9
AKT ishlab chiqarish	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
AKT savdosi	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,0	0,1	0,1
AKT xizmatlari	1,6	1,8	1,9	1,7	1,4	1,5	1,6	1,8
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
Elektron tijorat			0,0	0,0	0,1	0,1	0,6	1,2



Jadvalga ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak asosan davlatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari, AKT ishlab chiqarish, AKT savdosi, AKT xizmatlari, kontent sektori va ommaviy axborot vositalari jabxalarida o'sish tendensiyalarini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda raqamli iqtisodiyot dinamikasiga e'tibor beradigan bo'lsak, 2015-yilda 1,9 foizni tashkil etgan bo'lsa 2019-yilga kelib 1,7 foizni, 2022-yilda 3,4 foizni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. 2019-yilda dinamik ko'rsatkichning pasayishi asosiy sabablardan biri sifatida yuzaga kelgan pandemiyaning salbiy ta'sir qilgani bilan izohlasak bo'ladi. Lekin, 2019-yildan keying davr raqamli iqtisodiyotni rivojlanishiga alohida xizmat qildi. Pandemiya sharoitida raqamli iqtisodiyot orqali keng xizmatlar ko'rsatilib ijobiy natijalarga erishila boshladi. Bundan kelib chiqib dunyo mamlakatlari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha strategik rejalarni amalga oshira boshladilar. Davlatimizda elektron biznes faoliyati 2019-yildan boshlab rivojlana boshlagan. Elektron tijorat mamlakatimizda 2019-yilda 0,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 1,2 foiz qariyb 12 barobar o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Jadval ma'lumotlaridan elektron tijorat sohasi yaqin davrlardan boshlab asta-sekinlik bilan rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. Ammo mavjud imkoniyatlarimizga e'tibor beradigan bo'lsak elektron biznesni yanada rivojlantirish imkoniyatlarimiz mavjud. Buni elektron tijorat va chakana savdo hajmi kabi ko'rsatkichlarni tahlil qilishimiz orqali ham mavjud imkoniyatlardan potensial foydalanishimiz natijasida erishishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm: O'zbekiston Respublikasini 2016–2022-yillarda elektron tijorat va chakana savdo hajmi (mlrd. so'm) ^[11]

Elektron tijorat va elektron biznesni rivojlanish darajasini belgilab beruvchi ko'rsatkichlardan biri bu elektron tijoratni YaIMda ulushi hisoblanadi. YaIMda faoliyatning ulushining oshib borishi elektron tijoratning ko'lamini kengayotganligini bildiradi. Mamlakatimizda elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan say-harakatlarning faolligi sababli keying vaqtlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. 1-rasm ma'lumotlarida 2016–2022-yillarda O'zbekistonda elektron tijorat va chakana savdoning hajmini o'sish tendensiyalarini ko'rishimiz mumkin. Rasmda 2016-yilda elektron tijorat hajmi 6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 10886,8 mlrd. so'mni tashkil etgan. Aksincha chakana savdo hajmi 2016 yilda 88071,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa 2022-yilga kelib ushbu tendensiya 270687,2 mlrd. so'm o'sish ko'rsatkichini tashkil etgan. 2022-yilda elektron tijorat savdo hajmi 2021-yilga nisbatan deyarli 2 barobardan yuqori bo'lgan. Shuningdek, chakana savdo hajmi esa 2021-yilga nisbatan 4 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda elektron biznes faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tamonidan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida "... elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi sub'yektlarning tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni QR to'lovlari texnologiyasi va NFC texnologiyalarini joriy qilish, jumladan mobil qurilmalar orqali to'lovlarni qabul qilish orqali zamonaviy va qulay bo'lgan masofaviy usullarda qabul qilish imkoniyatini yaratish" ^[2] kabi vazifalarni amaliyotga tatbiq etilishi natijasida sotuvchi va iste'molchi o'rtasida to'lov jarayonlarini osonlashishi, masofadan turib savdo amaliyotlarini kengayishiga, tizim faoliyatini samarali ishlashiga xizmat qiladi. Shuningdek, "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ–3442-son Qarori qabul qilingan bo'lib elektron tijorat va elektron biznesni rivojlantirishda muhim me'yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi. Qarorda elektron biznes, elektron tijoratni rivo-



jlantirishdagi muammolar, kamchiliklar, elektron biznes faoliyatida qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalarga yechimlar keltirilgan ^[1].

Qarorda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda, shu jumladan elektron tijoratni rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini berdi. Shunga qaramay, mamlakatda elektron tijoratning to'laqonli bozorini yaratishga, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishiga to'siq bo'layotgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Bu borada xususan:

- birinchidan, elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning amaldagi tizimi soha taraqqiyotining jadal sur'atlardagi o'zgarishlariga mos kelmaydi va o'z navbatida aholi keng qatlami va tadbirkorlik sub'yektlari uchun elektron tijatdan foydalanish imkonini ta'minlamaydi;
- ikkinchidan, mahalliy tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarda to'liq raqobatlashish, shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermayotgan elektron tijorat orqali tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilishning eskirgan byurokratik to'siqlari saqlanib qolmoqda;
- uchinchidan, elektron tijoratni rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni lozim darajada yo'lga qo'yilmagan, bu esa iqtisodiyotni raqamlashtirish va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining to'xtab turishiga olib kelmoqda;
- to'rtinchidan, mahalliy to'lov tizimlarining mashhur xorijiy analoglari bilan integratsiyasi yo'qligi, mamlakat tadbirkorlik sub'yektlarining elektron tijorat sohasidagi yetakchi xorijiy tashkilotlar bilan to'liq xalqaro hamkorlikda ishlashlariga, shuningdek, mahalliy bozorning eksport salohiyati va raqobatbardoshligiga ta'sir qilmoqda;
- beshinchidan, elektron tijorat imkoniyatlari va afzalliklarini, jumladan, tovarlar (xizmatlar) uchun, ayniqsa, joylarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish darajasi pastligicha qolmoqda, bu esa xufyona iqtisodiyot hajmining oshishiga va davlat budjetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib kelmoqda;
- oltinchidan, amaldagi soliqqa tortish tizimi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik sub'yektlari, jumladan, axborot vositachilari faoliyatini kengaytirishni rag'batlantirmaydi, bu esa Internet tarmog'i orqali mahsulotlarni xufyona ayirboshlash hajmi oshishiga olib kelmoqda, shuningdek, ushbu sohaga investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni cheklamoqda ^[1].

Yuqorida keltirilgan Qarorda keltirilgan muammolardan kelib chiqib mamlakatimizda elektron biznes va elektron tijoratni rivojlantirish, ushbu soha faoliyatiga alohida e'tibor berishimiz hamda YalMda uning ulushini yana ham oshirishimiz maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz lozim:

- birinchidan, davlat miqyosida aholi, tadbirkorlar, davlat muassasalari darajasida elektron tijoratni keng joriy qilish bo'yicha zaruriy qonunchilik bazasini shakllantirish va mavjud normalarni takomillashtirish;
- ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyati, biznes yuritish jarayonida raqamli texnologiya va raqamli dasturiy ta'minotlardan keng foydalanish orqali "gibrit biznes"ni shakllantirish va keyinchalik uni to'laqonli raqamlashtirish ^[8];
- uchinchidan, IT vositalari, raqamli texnologiyalar, dasturiy ta'minotlar, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va import qilish bo'yicha imtiyozlar paketini shakllantirish va keyinchalik mahalliy ishlab chiqarish bosqichiga o'tish;
- to'rtinchidan, mahallalar, tumanlar, shaharlar va viloyatlar kesimida aholi o'rtasida elektron biznes faoliyati bilan shug'ullanish va undan samarali foydalanish bo'yicha o'quv-trening kurslarini tashkillashtirish, elektron biznesning avfzalliklari, foydalanish yo'llari haqida aholi ko'nikmasini takomillashtirish;
- beshinchidan, elektron tijorat, elektron biznes faoliyatini davlatimizda muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlash maqsadida raqamli to'lov tizimini takomillashtirish xalqaro andozolarga integratsiya qilish dasturlarini ishlab chiqish va milliy raqamli to'lov tizimiga asos solish kabi ustuvor vazifalarni amaliyotga joriy etishimiz hamda mamlakatimizda elektron biznes faoliyatini yanada rivojlantirishimiz va xorij mamlakatlari bilan raqobatlasha olishimiz mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bunday olib qaralgan tarkibiy o'zgarishlarning ijobiy bo'lishi natijasida iqtisodiy o'sishga erishishimiz mumkin. Zero, raqamli iqtisodiyotda ilgari borayotgan davlatlar tajribasini qo'llab-quvvatlashning yanada keng qamrovli usullarini o'rganish, raqamli ishlab chiquvchilar strategiyalari va globallashtirishning kelajakdagi konturlarini qayta aniqlashtirish uchun yangi texnologiyalardan oqilona foydalanish, sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va intellektual yetakchilikni kuchaytirish zarur [8]. Shundagina davlatimizda elektron biznesni rivojlantirishimiz, YalMda doimiy ulushini oshirib borishimiz, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yuksaltirishimiz, tabiiy resurslarni tejab ko'proq mahsulotlar ishlab chiqishimiz va samaradorligini oshirishimiz, aholi



turmush farovonligi yuksaltirishimiz mumkin bo'ladi. Buning uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etishimiz lozim:

- birinchidan, raqamli xizmatlar va elektron biznes uchun elektron to'lovlar tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, elektron hukumat xizmatlarini taqdim etishda to'lovlarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot va moliya sohasida axborot infratuzilmasini takomillashtirish;
- ikkinchidan, elektron tijoratning rivojida muhim rol o'ynovchi pochta va logistika infratuzilmasini modernizatsiyalash, shuningdek, pochta va logistika xizmatlari sifatini oshirish kabi takliflarni amaliyotga joriy etish;
- uchinchidan, raqamli savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida raqamli texnika-texnologiyalar (blokcheyn texnologiyasi, bulutli texnologiyasi, su'niy intellekt, "Smart" texnologiya, 3D texnologiyasi, 5G aloqa tizimi, buyumlar interneti)dan samarali foydalanish hamda xizmat ko'rsatish sohasini raqamli texnologiyalar bilan diversifikatsiya qilish va buyurtmachilar (mijozlar) bilan o'zaro munosabatlar mexanizmlarini takomillashtirish;
- to'rtinchidan, aholini elektron biznesdan samarali foydalanishini ta'minlash maqsadida savodxonlik darajasini yuksaltirish ishlarini ommaviy olib borish, elektron biznesda oldi-soldi jarayonlarida uzluksizligini ta'minlash maqsadida hamyonbob smartfonlarni ishlab chiqarishni keng miqyosda joriy etish;
- beshinchidan, mamlakatimizda elektron biznes, elektron tijorat faoliyatini uzviylikini ta'minlash maqsadida Internet tezligini yanada yaxshilash va infratuzilmasini yanada takomillashtirish;
- oltinchidan, hozirgi davrlarda ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotgan biznes yurituvchi sub'yektlar faoliyatini qonuniylashtirish, legallashtirish va ularga imtiyozlar paketini shakllantirib berish;
- yettinchidan, raqamli platformalarda faoliyat ko'rsatayotgan elektron tijorat tizimida "Aqlli biznes", "Xavfsiz biznes" dasturlarini shakllantirish va milliy loyahasini amalga oshirish.

Ushbu taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotini o'sishiga, YalMda raqamli iqtisodiyot, xususan, elektron biznesning ulushini ortishiga, aholini elektron biznesda faoliyat ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmasini ortishiga, tadbirkorlarimizni jahon bozoriga tez sur'atlarda chiqishiga, tarmoqlarda erkin raqobat muhitini shakllanish hamda Prezidentimiz "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilab berganlaridek 2030-yilga borib YalMda raqamli iqtisodiyotning ulushi 30 % yetkazish kabi ustuvor maqsadlarni amalga oshirishimizda xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bunday islohotlarning amalga oshirilishi elektron biznes va elektron tijoratlashtirish jarayonini yanada tezlashtiradi va makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga munosib hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-son Qarori. Toshkent sh. 2018-yil 14-may. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. Toshkent sh. 2020-yil 5-oktabr. www.lex.uz.
3. R. H. Ayupov, G. R. Boltaboyeva Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020-y, 125 bet.
4. Q. J. Mirzayev, S. B. Boboqulov, B. Q. Janzakov, Raqamli iqtisodiyot / O'quv qo'llanma / Samarqand.: SamSI, "STAP-SEL" MChJ. Nashriyot matbaa bo'limi, -2022-y. 86 bet.
5. Ядова Н. Е. Современное состояние мирового рынка электронной коммерции и перспективы его развития // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Экономика. 2019. № 2. С. 116-125.
6. S. N. Xamrayeva "O'zbekistonda elektron savdo va elektron tijoratni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari" Innovatsion iqtisodiyot / Инновационная экономика / The Innovation Economy №1. 2023.
7. Sunnatullo Do'stov va boshqalar "Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari" <https://cyberleninka.ru/article/n/234>.
8. S. B. Bobokulov. Diversifying the service field under digitalization. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/429>.
9. Kurpayanidi Konstantin Ivanovich "Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021-yil.
10. <http://www.worldbank.org/eca/russian/data>.
11. <http://https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>.
12. <https://www.statista.com/statistics/379046/worldwide-retail-e-commerce-sales>.
13. <https://daryo.uz/2023/09/26/ozbekistonda-elektron-tijorat-kecha-va-bugun>.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

